



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “KAMBAG‘ALLIKDAN FAROVONLIK SARI” MAVZUSIDAGI III XALQARO FORUMNING OCHILISH MAROSIMIDA SO‘ZLAGAN NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Shularni inobatga olib, bugun yangi, yanada yuqori marrani belgilab olishga tayyormiz.

2030-yilga borib, xalqaro mezonlarga ko‘ra, O‘zbekistonda mutlaq kambag‘allikka to‘liq barham berish uchun barcha imkoniyatlarimiz bor va biz buni albatta uddalaymiz!

Aziz mehmonlar!

Oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishish uchun yettita ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan **“Kambag‘allikdan farovonlik sari”** dasturini amalga oshirmoqdamiz.

Eng avvalo, kambag‘al aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish o‘rinlarini ko‘paytirib, odamlar barqaror daromad manbasiga ega bo‘lishi uchun sharoit yarataymiz.

Faol investitsiya siyosatimiz tufayli shu yilning o‘zida 35 milliard dollar sarmoya evaziga 9 mingdan ortiq yangi korxona, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish o‘rni tashkil etilmoqda.

Qulay ishbiqlarmonlik muhiti hisobiga o‘tgan sakkiz yilda 700 ming tadbirkor o‘zining barqaror biznesiga ega bo‘ldi.

E‘tiborlisi — davlat biznesga sharoit yaratib beryapti, tadbirkorlar esa o‘ziga ijtimoiy mas‘uliyat olib, ehtiyojmand aholini ishli va daromadli qilishda ko‘makchi bo‘lmoqda. Mana shunday samarali hamkorlik tufayli shu yilning o‘zida 270 mingdan ziyod kambag‘al oila a‘zosi doimiy ishli bo‘ldi.

Biz hozirgi texnologiyalar asrida IT, sun‘iy intellekt, fintex kabi odamlarga yuqori daromad keltiradigan sohalarda startaplar ekotizimini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqdamiz.

Yil boshidan buyon startaplarga 270 million dollar yoki o‘tgan yilga nisbatan 4 barobar ko‘p xorijiy investitsiya kiritildi. Bu

yo‘nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirib, birgina Jahon banki bilan hamkorlikda qiymati 100 million dollar bo‘lgan yangi loyihalarni boshlayapmiz.

Biz mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va nufuzli moliya institutlari bilan faol ishlayapmiz. Bu borada Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda qishloqlarda yashash sharoitini yaxshilash, yo‘l qurilishi, tibbiyot va ta‘lim xizmatlarini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan 5 milliard dollarlik loyihalar alohida ahamiyatga ega.

Ushbu loyihalarni qo‘llab-quvvatlab, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga ulkan hissa qo‘shayotgan bank prezidenti Muhammad al-Jassir janoblarining xizmatlarini yuksak qadrlaymiz.

Mana shu imkoniyatdan foydalanib, bunday keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda bizga yaqindan ko‘maklashayotgan barcha xalqaro moliya institutlari va hamkor davlatlar delegatsiyalariga samimiy tashakkurimni izhor etaman.

Ikkinchidan, odamlarning bilimini oshirmasdan, ularni “kambag‘allik girdobi”dan chiqarish imkonsizdir.

Shu bois, sifatlil ta‘lim asosida inson kapitalini rivojlantirish, uzoq muddatli istiqbolida kambag‘allikni qisqartirishning asosiy “drayveri” bo‘lib qoladi.

Birgina misol, bolalarimizning bog‘chalardagi qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani natijasida 1 million ayollarimiz ta‘lim olish, kasb-hunar o‘rganish va daromad topish imkoniga ega bo‘ldi. Biz bu ishlarni davom ettirib, kambag‘al oilalar farzandlarini maktabgacha ta‘lim bilan to‘liq qamrab olish uchun barcha sharoitlarni yaratamiz. Bunday oilalar farzandlari uchun xorijiy til va kasb-hunar o‘rganishga ketadigan xarajatlarining 80 foizini qoplab beramiz va bu orqali 100 mingta kambag‘al oila farzandlarini qamrab olamiz.

Har bir kambag‘al oilada kamida 1 nafar oliy ma‘lumotli yigit yoki qiz bo‘lishi uchun imtiyozli ta‘lim krediti va davlat grantlarini ko‘paytiramiz.

So‘nggi besh yilda 800 mingdan ziyod aholini zamonaviy kasblarga o‘rgatib, ularni yuqori daromadli ishlarga joylashtirdik. Kelgusida bu amaliyotni yanada kengaytiramiz. Xalqaro standartlar asosida Kasbga tayyorlash xalqaro markazlarini tashkil etib, ularning bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikatlar berishni yo‘lga qo‘yamiz.

Uchinchidan, biz xotin-qizlarni jamiyatning faol a‘zosisga aylantirish masalasini ham davlat siyosati darajasiga olib chiqdik.

Bundan bir asr oldin buyuk ajdodimiz Abdulla Avloniy: **“Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishlari lozim, zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”**, degan.

Bu so‘z-lar naqadar to‘g‘ri ekanini bugun hayotning o‘zi yana bir bor tasdiqlamoqda.

Shu bois, biz xotin-qizlarga oliyoghdah o‘qish uchun foizsiz kredit ajratish, magistraturada bepul ta‘lim olish tizimini joriy etdik. Bugungi kunda talabalarning 53 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani, shu yilning o‘zida 1 million 700 ming ayol ishli bo‘lgani quvonarlidir. Bu ishni davom ettirib, “Raqamli avlod qizlari” dasturi doirasida 50 ming nafar qizlarni IT, fintex va sun‘iy intellektga o‘qitamiz.

Xotin-qizlar jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish doimiy e‘tiborimiz markazida bo‘lad.

Bu yil ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun 1,5 milliard dollar ajratdik. Ushbu mablag‘larni yanada ko‘paytirib, kelgusi yili yana 2 million ayol doimiy daromadli bo‘lishi uchun sharoit yaratamiz.

Kelgusi yildan mehnat bozorida ayollar uchun teng sharoit yaratish maqsadida

ijtimoiy sug‘urta tizimi qamrovini keskin oshiramiz. Bu — ularning kambag‘allikka tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini yanada oshirish bo‘yicha yangi-yangi tajribalarni o‘rtoqlashish maqsadida kelgusi yili Namanganda o‘tadigan Osiyo ishbiqlarmon ayollar forumiga barchangizni taklif qilaman.

To‘rtinchidan, inson salomatligini muhofaza qilmay turib, uning imkoniyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi.

Bu borada 140 ming kambag‘al oilaga shifokor birkitirib, ularni yiliga bir marta to‘liq tibbiy ko‘riktan o‘tkazishni yo‘lga qo‘ydik. Endi, kafolatlangan tibbiy xizmatlarni ko‘paytirib, kambag‘al oilalarning bunga sarf qiladigan xarajatini 2 karra qisqartiramiz. Bunda ularga bepul dori va kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi taqdim etiladi.

Beshinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzillil ishlash — kambag‘allikka qarshi kurashda asosiy yo‘nalishlardan biri.

Biz bu tizimni tubdan isloh qilib, ilgari 6 ta davlat tashkilotida bo‘lgan vakolatlarini yagona — Ijtimoiy himoya milliy agentligiga birlashtirdik.

Qisqa muddatda har bir tuman va shaharda 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlarni “bir darcha” tamoyili asosida ko‘rsatadigan “Inson” markazlarini tashkil qildik. Har bir mahallada ijtimoiy xodim aholi bilan proaktiv usulda ishlamoqda.

Shu yilning o‘zida 2 million 700 ming aholiga ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatildi. Ayniqsa, kambag‘al oilalarning parvarishiga muhtoj a‘zolariga yangi ijtimoiy xizmatlarni yo‘lga qo‘yganimiz 50 ming nafar mehnatga layoqatli aholi uchun ishlash imkonini yaratdi.

Biz bu yo‘nalishdagi ishlarnimzini kelgusida yanada keng ko‘lamda davom ettiramiz.

Jahon banki bilan ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish maqsadida 100 million dollarlik loyihani boshladik.

Imkoniyati cheklangan aholining kambag‘allikka tushib qolish ehtimoli yuqori. Shu bois, ularni qo‘llab-quvvatlash, inklyuzivlik asosida jamiyatga integratsiya qilish bo‘yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqdik.

Munosib mehnat sharoitini yaratganimiz uchun bu yil nogironligi bor 150 ming nafar shaxs ishga joylashdi. Ulariga hayotiy zarur tibbiy jihozlar, kolyaska va protezlar bepul yetkazib berilmoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarni maktab va kasbiy ta‘lim bilan qamrab olish uchun alohida dasturlarni amalga oshiryapmiz.

O‘zbekistonda og‘ir vaziyatga tushib qolgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish va ularni zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishidan himoya qilish borasida yangi tajriba yaratildi.

Oltinchidan, hududlarda infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish — ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni qisqartirishda muhim qadam bo‘lad.

Shu maqsadda qariyb 3,5 million aholi yashaydigan, sharoiti og‘ir 1 mingta mahallada infratuzilmani yaxshilayapmiz. Natijada shu yilning o‘zida 470 ming xonadonga qarashli tomorqaga suv bordi, yana 790 ming xonadonda elektr energiyasi ta‘minoti yaxshilandi.

Kelgusi yili mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yana 400 million dollar ajratayapmiz. Bunda 32 ta tuman va ijtimoiy sharoiti og‘ir 328 ta mahallani tanlab, ularni rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur qabul qilamiz. Bu — yangi tajriba bo‘lad.

Shuningdek, 810 ta mahallada suv, kanalizatsiya, yo‘l, maktab va bog‘cha qurish bo‘yicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirildi.

Uy-joyga muhtoj va daromadi past aholiga ipoteka tizimidan foydalanish uchun har yili 200 million dollar subsidiya ajratiladi.

Xalqaro moliya institutlari rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda kambag‘allikni qisqartirish talabini kiritisa, o‘laymanki, bu ham maqsadga muvofiq bo‘lad.

Yettinchidan, bizdagi davlat xarajatlarining 70 foizdan ortig‘i aynan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun rivojlanayotgan davlatlarga yiliga 4 trillion dollardan ziyod mablag‘ zarur.

Bunday sharoitda xavf-xatarlarni obyektiv baholash, moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha “kambag‘allikka qarshi kurashning yangi moliyaviy arxitekturasiga” ehtiyoj sezilmoqda.

Ushbu masalalarga yechim topish maqsadida 2026-yilda ko‘hna Xiva shahrida xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlar va hamkor davlatlar ishtirokida yuqori darajadagi konferensiya o‘tkazishni taklif qilamiz.

Hurmatli forum ishtirokchilari! Inson qadrini ulug‘lash orqali odamlar uchun munosib sharoit yaratish, bu borada kambag‘allikni qisqartirish — Yangi O‘zbekistondagi barcha islohotlar zamiridagi bosh maqsaddir.

Aminman, O‘zbekiston ortga qaytmas islohotlar yo‘lidan qat‘iy borib, kambag‘allikni qisqartirish borasida ham, Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq erishish bo‘yicha ham barcha majburiyatlarini bajarishga harakat qiladi.

Bugungi anjuman barchamiz uchun sarmahsul va foydali mulokat maydoniga aylanadi va men bunga ishonaman.

Sizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, g‘oyat sharaflil va olibanob faoliyatigizda ulkan yutuqlar, anjuman ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman.

INSON QADRINI ULUG‘LASH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH YANGI O‘ZBEKISTONDAGI BARCHA ISLOHOTLARNING BOSH MAQSADIDIR

Boshlanishi 1-betda

Izchil islohotlar tufayli 7,5 million aholi kambag‘allikdan chiqarilib, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 8,9 foizga tushirildi. Yil yakunigacha kambag‘allik darajasini 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. O‘tgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyotini 2 karra o‘sgani bunda muhim omil bo‘ldi. Shu yil yakuni bilan aholi jon boshiga daromad 3,5 ming dollarga yetishi kutilmoqda.

Yangi tashabbus va tajribalarni sinovdan o‘tkazib, dunyodagi ijobiy yutuqlarni o‘rganib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston modeli yaratildi.

Avvalo, manzillil ijtimoiy daftarlari joriy etilib, barcha ehtiyojmand oilalar qamrab olindi. Pandemiya davrida bepul dori-darmon, ijtimoiy nafaqalar uchun jami 8 milliard dollarlik mablag‘ va imtiyozlar berildi. Natijada 5 million 200 ming nafar fuqaroning “kambag‘allik qopqoni”ga tushib qolishi hamda iqtisodiy resessiyaning oldi olindi.

Jamiyatning eng quyi bo‘g‘iniga tushib, “mahallabay” ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Har bir xonadon, har bir oila bilan individual reja asosida ishlab, daromadini oshirish uchun yetarli resurs ajratildi.

Mahallalarni obod qilish, odamlar hayotini yaxshilash va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga har yili 2,5-3 milliard dollar yo‘naltirilmoqda.

Qishloq aholisini daromadli qilish uchun 235 ming gektar paxta va g‘alla maydoni qisqartirilib, odamlarga 30-50 sotixdan ajratib berildi. Bu 800 ming insonning daromadini oshirishda muhim qadam bo‘ldi.

— Bunday keng ko‘lamli sa‘y-harakatlarimiz hisobiga O‘zbekiston 2030-yilga qadar kambag‘allikni ikki karra qisqartirish bo‘yicha olgan majburiyatini barvaqt bajarishga harakat qilyapti. Shularni inobatga olib, bugun yangi, yanada yuqori marrani belgilab olishga tayyormiz. 2030-yilga borib, xalqaro mezonlarga ko‘ra, O‘zbekistonda mutlaq kambag‘allikka to‘liq barham berishga barcha imkoniyatimiz bor va biz buni, albatta, uddalaymiz, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturining mazmun-mohiyatiga ham to‘xtaldi. Bu dastur yettita ustuvor yo‘nalishni qamrab olgan.

Eng avvalo, kambag‘al aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish o‘rinlarini ko‘paytirib, odamlar barqaror daromad manbasiga ega bo‘lishi uchun sharoit yaratilmoqda.

Faol investitsiya siyosati tufayli shu yilning o‘zida 35 milliard dollar sarmoya evaziga 9 mingdan ortiq yangi korxona, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish o‘rni tashkil etilmoqda.

hamkorlik tufayli joriy yilning o‘zida 270 mingdan ziyod kambag‘al oila a‘zosi doimiy ishli bo‘lgan.

Ikkinchidan, sifatlil ta‘lim asosida inson kapitalini rivojlantirish, uzoq muddatli istiqbolida kambag‘allikni qisqartirishning asosiy “drayveri” bo‘lib qoladi.

Xususan, kambag‘al oila bolalarini maktabgacha ta‘lim bilan to‘liq qamrab olish uchun barcha sharoit yaratiladi. Bunday oilalar farzandlari uchun xorijiy til va kasb-hunar o‘rganishga ketadigan xarajatlarining 80 foizi qoplab beriladi.

So‘nggi besh yilda 800 mingdan ziyod aholi zamonaviy kasblarga o‘qitilib, yuqori daromadli ishlarga joylashtirilgan. Endi Kasbga tayyorlash xalqaro markazlari tashkil etilib, ularning bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikatlar berish yo‘lga qo‘yildi.

Uchinchidan, xotin-qizlarni jamiyatning faol a‘zosisga aylantirish alohida e‘tiborda bo‘lad. Shu bois, talaba qizlarga foizsiz kredit ajratish, magistraturada bepul ta‘lim olish imkoniyati yaratildi. Bugun talabalarning 53 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Shu yilning o‘zida 1 million 700 ming ayol ishli bo‘lgan.

Buni davom ettirib, “Raqamli avlod qizlari” dasturi doirasida 50 ming nafar qizlar axborot texnologiyalari, fintex va sun‘iy intellektga o‘qitiladi.

Joriy yil ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun 1,5 milliard dollar ajratildi. Kelasi yili yana 2 million ayolini doimiy daromadli qilish choralari ko‘riladi.

To‘rtinchidan, inson salomatligi muhofaza qilinib, uning imkoniyatlarini to‘laqonli yuzaga chiqarilmoqda. Jumladan, 140 ming kambag‘al oilaga shifokor birkitirilib, ular yiliga bir marta to‘liq tibbiy ko‘riktan o‘tkazilmoqda.

Ushbu masalalarga yechim topish maqsadida 2026-yilda Xiva shahrida xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlar va hamkor davlatlar ishtirokida konferensiya o‘tkaziladi.

Forumda Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad al-Jassir, Osiyo taraqqiyot banki vitse-prezidenti Ingming Yang, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi bosh vitse-prezidenti Sachiko Imoto, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Kaxa Imnadze, Jahon bankining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha global direktori Luis Felipe Lopes-Kalva ishtirok etdi. Umuman, anjumanda 200 ga yaqin xalqaro ekspertlar qatnashdi.

Tadbir doirasidagi sessiyalarda kambag‘allikni qisqartirishda bozor talablari, islom moliyasining imkoniyatlari, biznes inklyuzivligi, inson kapitaliga sarmoya mavzularida innovatsion yondashuvlar muhokama qilindi.

Xalqaro forum doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad bin Sulaymon al-Jassir bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida ushbu nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilot rahbari forum muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan samimiy tabriklab, ITB O‘zbekistonda kambag‘allikni yanada qisqartirish borasidagi vazifalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini ta‘kidladi.

Oltinchidan, hududlarda infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish — ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni qisqartirishda muhim qadam bo‘lad.

Shu maqsadda qariyb 3,5 million aholi yashaydigan sharoiti og‘ir 1 mingta mahallada infratuzilma yaxshilanoqda. Kelasi yil mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yana 400 million dollar ajratiladi. Bunda 32 ta tuman va 328 ta og‘ir mahalla tanlanib, ularni rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur qabul qilindi.

Shuningdek, 810 ta mahallada suv, kanalizatsiya, yo‘l, maktab va bog‘cha qurish bo‘yicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirildi.

Uy-joyga muhtoj va daromadi past aholiga ipoteka tizimidan foydalanish uchun har yili 200 million dollar subsidiya ajratiladi.

Yettinchidan, davlat xarajatlarining 70 foizdan ortig‘i aynan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun sarflanmoqda. Natijada shu yilning o‘zida 470 ming xonadonga qarashli tomorqaga suv bordi, yana 790 ming xonadonda elektr energiyasi ta‘minoti yaxshilandi.

Xususiy biznes salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mamlakatimiz hududlarida zamonaviy tibbiyot markazlarini barpo etish, avtomobil yo‘larini modernizatsiya qilish, irrigatsiya kanallarini tiklash va betonlash hamda boshqa yo‘nalishlarda aniq loyihalarini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jahon bankining global direktori Luis Felipe Lopes-Kalvani qabul qildi.

Muzokaralar avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Jahon banki guruhil prezidenti Ajay Banganing salomi va eng egzu tilaklarini yetkazdi hamda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” xalqaro forumi muvaffaqiyatli tashkil etilgani bilan tabrikiladi.

Jahon banki bilan strategik sheriklikni, eng avvalo, Barqaror rivojlanishning birinchi maqsadi bo‘lmish kambag‘allikka qarshi kurashish sohasida yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ushbu global moliyaviy institut bilan amaliy hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Mamlakat dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston bankning makromintaqadagi yetakchi hamkorlaridan biridir. Loyihalar portfeli 14 milliard dollardan oshdi.

Jahon bankining faol ko‘magida kambag‘allik darajasini aniqlash metodologiyasi ishlab chiqildi. Ayni paytda O‘zbekistonda kambag‘allik va tenglik ko‘rsatkichlari birgalikda diagnostika qilinoqda.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish doirasida xotin-qizlar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish, shahar va qishloqlarning ijtimoiy infratuzilmasini modernizatsiya qilish, turizmni rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan qo‘shma loyiha tayyorlash taklif qilindi.

Xususiy sektor loyihalarini ilgari surish, o‘rta muddatli rivojlanish dasturlarini ishlab

chiqish, aholini ro‘yxatga olish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyo taraqqiyot banki vitse-prezidenti Ingming Yangni ham qabul qildi.

Uchrashuv avvalida vitse-prezident Ingming Yang davlatimiz rahbariga OTB rahbari Masato Kandanning salomi va eng egzu tilaklarini yetkazdi hamda forum muvaffaqiyatli o‘tkazilgani bilan tabrikiladi.

Yangi O‘zbekistonda ortga qaytmas suv, kanalizatsiya, yo‘l, maktab va bog‘cha qurish bo‘yicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar portfeli 14 milliard dollarni tashkil etmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi OTB bilan infratuzilma, davlat-xususiy sheriklik, biznes, ijtimoiy soha va kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli strategik sheriklik dasturini tayyorlash muhimligini qayd etdi.

Kambag‘allikka qarshi kurashish, muhim mineralarni qayta ishlash, byudjetni qo‘llab-quvvatlash, qo‘shma investitsiya platformasini yaratish bo‘yicha loyihalarini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Shuningdek, bank Boshqaruvchilar kengashining yillik yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish va uni kelgusi yilda O‘zbekistonda o‘tkazish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev To‘rao‘rg‘on tumanidagi “Ifitxor kiyim sanoat” klasterining yangi korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Namangan to‘qimachilik bo‘yicha mamlakatimizda yetakchi. Viloyat sanoatining uchdan biri, eksportining yarmi shu sohaga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda 2 ming 500 ga yaqin to‘qimachilik korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular 250 ga yaqin brendlar ostida mahsulot tayyorlab, yuz mingdan ortiq insonni yuqori daromad bilan ta‘minlayapti.

Sanoat rivojiga qo‘shimcha sharoit yaratish maqsadida “Namangan” erkin iqtisodiy zonasi To‘rao‘rg‘on tumaniga kengaytirilgan edi. Yigimaga yaqin loyiha qatorida bu yerda “Ifitxor kiyim sanoat” klasterining yangi korxonasi ham barpo etildi.

13-avgust kuni bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari to‘qimachilik korxonalarining yirik brendlar bilan hamkorligi masalasiga alohida urg‘u bergan edi. “Ifitxor kiyim sanoat”da shunday tizim yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda “Bugatti”, “Pierre Cardin”, “Roy Robson”, “Baldesarini”, “Lavard”, “Jake’S”, “Engbers”, “Cinque”, “Walbusch” kabi mashhur brendlar buyurtmalariga ko‘ra mahsulot tayyorlanmoqda. Namanganda tikilgan kiyimlar Yevropa do‘konlarida sotilmoqda.

Bundan tashqari, “Mercedes-Benz”, “BMW”, “Rolls-Royce” kabi avtomobillar uchun o‘rindiq matolarni ham ishlab chiqarilmoqda. Mazkur yo‘nalishda u mintaqamizda yagona korxona hisoblanadi. Umuman, korxona yigirmaga yaqin xorijiy brendlar bilan hamkorlikda ishlamoqda.

Yangi loyihaning umumiy qiymati 198 million dollar bo‘lib, mablag‘lar asosan qurilish ishlari va ilg‘or texnologiyalarni jalb etishga yo‘naltirildi. Zamonaviy inshootlar barpo etildi, maxsus laboratoriya tashkil qilindi. Germaniya, Italiya, Turkiya va Polsha kabi to‘qimachilikda yetakchi mamlakatlardan keltirilgan energiya tejakor uskunalar ish unumdorligini oshirdi. Korxonadagi zamonaviy laboratoriya sifat nazoratini ta‘minlash va nufuzli brendlar ishonchini qozonishda muhim o‘rin tutmoqda.

Dastlab oddiy tikuvchilik sexi sifatida ish boshlagan “Ifitxor kiyim sanoat” bugun paxta yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulotni eksportga yo‘naltirayotgan yirik klasterga aylandi. Sifat bo‘yicha qat‘iy talablar uni xalqaro bozorga olib chiqadi.

Prezident korxonadagi ish jar

BILIM VA TAFAKKUR

BARCHA TARMOQLARNI HARAKATGA KELITIRUVCHI, YANGILANISHLARGA XIZMAT QILUVCHI KUCHDIR

Bugungi O‘zbekiston yoshlari kechagidan ko‘ra bilimli, talabchan avloddir. Ulardan har birining taqdiriga davlatimiz katta mas’uliyat bilan yondashmoqda. Ta’limga bunday e’tibor, muallimga hurmat va kechayotgan islohotlar har bir vatandoshimizning yurak-yuragiga kirib bormoqda. Bu fikrimizga davlatimiz rahbarining Bo‘stonliq tumanida o‘qituvchi va murabbiylar bilan muloqoti yorqin dalil bo‘ldi.



O‘ZBEKISTON MINTAQAVIY TA‘LIM VA ILM-FAN XABIGA AYLANMOQDA



Fazliddin MO‘MINOV,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi Yig‘ma axborot-tahlil bo‘limi
boshlig‘i

Dunyodagi eng ulug‘ ish

Muloqotda mamlakatimiz rahbari o‘z hayotini yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishdek dunyodagi eng ulug‘ ishga bag‘ishlagan barcha ustozlarni yaqinlashib kelayotgan kasb bayrami bilan samimiy muborakbod etib, **“Ta’lim sifati yuqori bo‘lgan mamlakatda iqtisodiyot barqaror o‘sishi, bu — hayot qonuni”** ekanini ta’kidladi.

Darhaqiqat, ulug‘ pedagog Abdulla Avloniy aytganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat masalasidir”. Bu so‘zlar hozir ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zero, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti ilm-fan va ma’rifatga berilgan e’tibor bilan belgilanadi. Bu haqiqatni chuqur anglagan mamlakatimiz yetakchisi ta’limni davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgiladi. Natijada qisqa davr ichida o‘qituvchilar maktabga, yoshlar ilimga qaytdi. O‘zgarishlarning dastlabki davrida ta’lim tizimi qonunchiligi muhim huquqiy asoslar bilan mustahkamlandi. Xususan, Prezidentimizning 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi qarori oliy ta’lim tizimidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Xususi oliy ta’lim muassasalari faoliyati rivojlana boshladi. Yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasi sezilarli oshib bordi. Mazkur jarayonlar esa O‘zbekistonni ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi xabga aylantirishga, investitsiyaviy jozibadorlik oshishiga, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalari jalb etilishiga imkoniyat yaratdi. Pirovardida ta’limga yo‘naltirilgan xarajatlar 6 barobar oshdi. Oliygo‘hlar soni 77 tadan 202 taga yetkazilib, oliy ta’limda qamrov 9 foizdan 43 foizgacha o‘tdi, talabalar soni 1,5 milliondan ortdi.

Kredit-modul tizimi to‘liq joriy etilishi, 86 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilishi va 2000 dan ortiq dasturning TOP-300 universitetlar mezonlariga moslashtirilishi bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Bundan tashqari, TOP-500ga kirgan universitetlar bilan 17 ta qo‘shma ta’lim dasturi qabul qilindi.

“Avval test, keyin tanlov” tamoyili asosidagi qabul imtihonlari adolat va shaffoflikni ta’minladi. Xotin-qizlar uchun davlat granti 2 barobar oshirildi. Raqamlashtirish jarayoni ham ortda qolayotgani yo‘q. “Raqamli universitet” loyihasi doirasida HEMIS tizimi ishga tushirilib, elektron kutubxona platformasi yo‘lga qo‘yildi va adabiyotlarning qariyb 87 foizi elektron shaklga o‘tkazildi. “Registrator ofisi” orqali 96 ta oliygo‘hda 30 tadan 85 tagacha xizmat ko‘rsatilmoqda. Talabalar turar joylari bilan qamrov 28 foizdan 54 foizga yetkazildi. Barcha uchun oliy ma’lumot olishga keng sharoitlar yaratildi.

Yangi O‘zbekistonda eng muhim soha — ta’lim, eng hurmatli insonlar — o‘qituvchi va murabbiylardir. Muloqotda Prezidentimiz tomonidan baralla aytilgan bu e’tirof minglab ustozlar qalбини yoritib yubordi. Davlatimiz rahbarining kuchli siyosiy irodasi, ilmparvarligi, pedagoglarga hurmat-e’tibori va bu yo‘ldagi qat’iyati bugungi avlodga haqiqiy ibrat bo‘layotgani rost. Afsuski, muayyan vaqt bu e’tibor susaydi. Oqibatda ilm-fan rivoji ortda qoldi. Bular endi tarix. Paxta dalalarida sovurilgan oltin vaqlar, majburiy mehnat sharoitlarida o‘tgan ilmning umri endi yosharib bormoqda. Aytish kerakki, Prezidentimiz o‘qituvchi qadrlini anglash, uni sharafli bntun jamiyatning burchi ekanini islohotlar mohiyatida tushuntira oldi.

Ha, bugun milliy ta’limga qaratilgan e’tibor tobora kuchaymoqda. Yoshlarimiz tili bilan aytganda, ta’lim “trendda”. Bu e’tibor endilikda yangi o‘zgarishlar,

berilayotgan imtiyozlar orqali yanada ortadi. Chunki muloqotda bu borada qator takliflar, tashabbuslar ilgari surildi.

Jumladan, maktab ta’limida 9- va 11-sinf o‘quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari joriy etilib, bitiruvchilarning kasb yoki oliy ta’limga yo‘nalishi belgilanadi.

2026-yil — Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish yili deb e’lon qilindi. Buning uchun Kasbiy ta’lim agentligi tashkil etilib, 100 ta texnikumda Germaniya, Shveysariya, Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlarning ilg‘or kasbiy ta’lim dasturlari joriy etiladi. Texnikumlarda dual ta’lim tizimi kengaytirilib, “investor — tarmoq — texnikum” zanjiri asosida korxonalar bilan hamkorlik kuchaytiriladi.

Shuningdek, 15 yildan ortiq stajga ega oliy toifali pedagoglarga ipoteka krediti boshlang‘ich badalinig 25 foizi qoplanadi. Pedagoglar farzandlari oliygo‘hga o‘qishga kirs, kontrakt summasiga 30 foiz chegirma beriladi. O‘qituvchilarga kompyuter xaridi uchun 10 million so‘mgacha imtiyozli kredit ajratiladi. Texnikum o‘qituvchilariga ilmiy daraja va unvonlar uchun ustamalar to‘lanadi. Reytingda yuqori o‘rinlarni egallagan maktab, bog‘cha, texnikum va oliygo‘h pedagoglarga O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish uchun chiptalarga chegimalar beriladi.

Bugungi kunda 598 ta texnikumda 353,1 ming yosh 301 ta kasb va mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olmoqda. Dual ta’lim tizimi keng joriy etilib, 430 ta texnikumning 34 ming o‘quvchisi 9775 ta korxona bilan hamkorlikda, 3029 o‘quvchi esa Germaniya tajribasi asosida o‘qitilmoqda. Eng muhimi, O‘zbekiston kelajakda yuqori malakali ishchi kuchiga bo‘lgan talabni qondirish uchun xalqaro standartlarga o‘tyapti. Ya’ni 2025/2026-o‘quv yilida 60 ta texnikumda 7384 o‘quvchiga Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Janubiy Koreya va Belarus ta’lim dasturlari bo‘yicha ilm berilayapti.

Ilmiy innovatsiya — taraqqiyot lokomotivi

Buyuk mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiy aytganidek, “Ilm-ma’rifatsiz bir millatning kelajagi yo‘qdir”. Albatta, har bir millat, mamlakat qudratini uning ilmi, innovatsion salohiyatiga qarab baholash qiyin emas. Ilm-fan va innovatsiyalarsiz iqtisodiy taraqqiyotni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois, yurtimizda so‘nggi 9-yilda ilmiy darajali pedagoglar ulushi 32,7 foizdan 46,6 foizgacha o‘tdi. Doktoranturaga ajratilgan kvotalar soni 7,1 barobar oshib, 5250 taga yetkazildi. Ilmiy loyihalarga ajratilgan mablag‘ 5,3 barobar ko‘payib, 1,1 trillion so‘mlik 559 ta loyiha amalga oshirilmogda.

Yosh olimlar va innovatorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan “Yoshlar akademiyasi” a’zolari soni 6 mingdan oshgan. Startap loyihalarga 182,8 milliard so‘m ajratilib, 299 ta startap yo‘lga qo‘yilgan.

Bugun O‘zbekistonning xalqaro maydondagi mavqei ham tobora oshib bormoqda. O‘tgan yili yurtimiz “Global Innovation Index” reytingida 83-o‘rinni egalladi, bu 2015-yildagiga nisbatan 39 pog‘ona yuqori natijadir. 7 ta oliygo‘himiz dunyoning eng nufuzli QS xalqaro reytingidan joy oldi. “Study in Uzbekistan” veb portali yaratilishi, chet tilini bilish darajasi to‘g‘risida maxsus sertifikat berish tizimi joriy etilishi, shuningdek, xalqaro faoliyat O‘zbekistonning dunyo ta’lim hamjamiyatiga faol integratsiyalashib borayotganini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston tayanchi ilm-ma’rifatli va kasb-hunarli yoshlardir. Rejalar aniq, odimlarimiz dadil, faqat birgalikda chin dildan harakat qilsak, oldimizga qo‘yilgan maqsadlarga, albatta, erishamiz.

Mamlakatimizda yangi paradigma shakllanmoqda.

Xususan, zamonaviy bilimlarga ega, global iqtisodiyot chaqiriqlariga javob berishga shay, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga salohiyatli tizim yaratilmoqda. Ta’limga ilg‘or yondashuvlar izchil va tizimli asosda tatbiq etilyapti. Bu jarayonda asosiy mas’uliyat, shubhasiz, pedagoglar zimmasida. Ular mehnatga shunchaki kasb sifatida emas, balki yangi O‘zbekiston “oltin fondi”ning bilim sifati, ma’naviy axloqiy yo‘nalishlari va hayotiy intilishlari bilan bog‘liq missiya sifatida qaraladi.



Azamat KAMOLOV,
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi boshqarma boshlig‘i,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

va baholash tizimi 1500 ta maktabda ham joriy qilindi. Bu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida bilimli o‘quvchilarni saralab, xalqaro darajada tarbiyalashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 15-sentabr kuni o‘qituvchi va murabbiylar bilan muloqotida qayd etilganidek, mamlakatimiz aholisi so‘nggi 34 yilda 2 barobar o‘sib, 38 milliondan oshdi. Hozir maktablarda 6,5 million o‘quvchi ta’lim olyapti. So‘nggi sakkiz yilda 500 ga yaqin yangi maktab qurilgan, mavjudlari kengaygani hisobiga 1 million o‘quvchi o‘rni ochildi. 200 mingdan ziyod o‘g‘il-qiz xususiy maktablarda o‘qiyapti. Endi maktab davrida o‘quvchilarni qobiliyatiga qarab kasb yoki oliy ta’limga yo‘naltirishga 9- va 11-sinf o‘quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari joriy qilinadi. Shu orqali 400 mingga yaqin 9-sinf bitiruvchisi texnikumlarga qamrab olinadi.

Davlatimiz rahbari kasbiy ta’lim masalasiga ham alohida to‘xtaldi. Soha uchun 2026-yil — Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish yili bo‘lishi ta’kidlandi. Shu maqsadda Kasbiy ta’lim agentligi tashkil qilinadi. Agentlikning asosiy vazifasi barcha — 598 ta texnikumga yangi muhit olib kirish va xalqaro standartlarni joriy qilishdan iborat bo‘ladi.



Taqqos va tahlil bugungi tub o‘zgarishlar ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Sakkiz yil avvalgi ta’lim tizimimiz haqida, to‘g‘risi, ijobiy fikr aytish mushkul. Keyingi yillarda butun tizimni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar boshlandi. Yangi maktablar qurildi, zamonaviy o‘quv dasturlari va texnologiyalar joriy etildi. Jumladan, so‘nggi yillarda mamlakatimizda 14 ta Prezident ta’lim muassasasi, 201 ta ixtisoslashtirilgan, 2 ta sport va 9 ta ijod maktabi ochildi. Ulardagi o‘qitish

Bugun davlat ta’lim sohasini shunchaki qo‘llab-quvvatlamayapti, balki unga haqiqiy sarmoya kiritmoqda. Pedagoglar mehnatini qadrlayapti. Ularni innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga rag‘batlantiryapti. Eng asosiysi, bu islohotlarni sohaning har bir vakili o‘z hayotida his qilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, Prezidentimizning ta’lim-tarbiya sohasi fidoyilari bilan muloqoti mamlakatimiz taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligini ta’minlashga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi.

Tibbiyot

Yaqinda qadimiy shahar Buxoroda tibbiyotga oid nufuzli xalqaro konferensiya tashkil etildi. O‘nta davlatdan 200 dan ortiq olim va mutaxassis ishtirok etgan anjumanda zamonaviy tibbiyot, raqamli texnologiyalar qo‘llanishi, xirurgiya, kardioxirurgiya, transplantologiya, nevrologiya, pediatriya, stomatologiya, travmatologiya, endovaskulyar xirurgiya, akusherlik-ginekologiya, terapiya va tibbiy innovatsiyalar yo‘nalishlaridagi dolzarb masalalar muhokama qilinganini inobatga olsak, u biz, tibbiyot xodimlari uchun nihoyatda foydali bo‘ldi.



Akbar SAIDOV,
professor

Buxoro zaminida bir paytlar Abu Ali ibn Sino yaratgan ilmiy maktab butun insoniyatga xizmat qilmoqda. Uning tibbiyotiga oid asarlari hanuz jahon ilm dargohlarida qo‘llanib kelinmoqda. Shu ma’noda, konferensiyaning o‘tmishi bilan kelajakni bog‘lovchi ma’naviy ko‘pri, desak arziydi.

Buxoro davlat tibbiyot instituti tarixi ham bu merosning davomi sifatida namoyon bo‘ladi. Yuzlab olimlar, minglab shifokorlarni yetishtirgan bu maskanda avlodlar almashinuvi orqali ilm poydevori yanada mustahkamlandi.

Yurtimiz tibbiyot ta’limida tub o‘zgarishlar yuz beryapti. Ana shu yangilanishlar ta’sirida institutimiz milliy reytingda oliy ta’lim muassasalari ichida 4-o‘rin, tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari ichida esa 1-o‘rinni egalladi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari, xalqaro standartlarga mos dasturlar, chet el tajribalari joriy qilinayotgani katta ahamiyat kasb etmoqda. Anjuman davomida tajriba almashish barobarida Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkiya singari mamlakatlar olimlari bilan qo‘shma tadqiqotlar, maqolalar va talabalar akademik mobilligi bo‘yicha kelishuvlar imzolandi. Xususan, Sankt-Peterburg davlat universiteti, I.P.Pavlov nomidagi Sankt-Peterburg davlat tibbiyot universiteti va Moskva davlat tibbiyot-stomatologiya universiteti bilan hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha aniq rejalar belgilab olindi.



Institut tarixi bizga ibrat, bugungi islohotlar esa yangi maqsadlar manbai. Yoshlar ilm yo‘lida dadil qadam tashlashi, uni xalq xizmatiga yo‘naltirishi lozim. Chunki ularning qo‘lida sog‘lom millat va porloq kelajak kaliti turibdi.

Buxoro davlat tibbiyot instituti bugun jahon tibbiyoti bilan hamnafas qadam

tashlayotgan ilmiy markazga aylangan. Institutimizda bir vaqtning o‘zida bir necha ilmiy kengash faoliyat ko‘rsatmoqda, yo‘nalishlar bo‘yicha maktablar shakllandi, yuzlab yoshlar fanga kirib kelmoqda.

Ilm-fan hech qachon o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. U mehnat, izlanish va sabr mahsulidir. Oliygo‘himizdagi ilmiy

maktablar — morfologiya, stomatologiya, xirurgiya, pediatriya, nevrologiya, akusherlik va ginekologiya, travmatologiya, otolaringorinologiya, yuqumli kasalliklar va boshqa yo‘nalishlar bugun nafaqat an’anani davom ettiryapti, balki yangi kashfiyotlar sari yo‘l ochmoqda. Bu yangi O‘zbekistonda ilmning qanday qiymatga ega ekanini ko‘rsatadi. Binobarin, ilm faqat laboratoriyadagi natija emas. U jamiyatni taraqqiy ettiruvchi kuch, inson salomatligini asrab-avaylovchi qudrat. Ibn Sino yurtida tibbiyotga oid xalqaro anjuman o‘tkazilishi esa shu yurt farzand, shu soha vakili sifatida bizga katta g‘urur bag‘ishladi.



2025-yil 18-sentabr, 193-son

YANGI O‘ZBEKISTON

KO‘ZGU

Tashrifdan keyingi o‘ylar

Bo‘stonliq boshida quyosh balqidi

Joriy yilning kuzi saxovat, baraka bilan boshlandi. Poytaxt viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar avj pallada. Dalalarda g‘arq pishiqchilik. Bordonlar bug‘doyga to‘ldi. Meva, sabzavot, uzum mo‘l hosil berdi. Paxtaning ham cho‘g‘i baland. Mana shunday dorilamon kunlarda davlatimiz rahbarining Toshkent viloyatiga tashrifi ma‘murchilik, qut-baraka salmog‘ini yanada oshirgani turgan gap. Odamlarda bugungi kuniga rozilik, ertangi kuniga ishonch tuyg‘ulari yanada mustahkamlandi.



Bugun Toshkent viloyatiga kelgan, uning go‘zal shahar va qishloqlarida, mard va olijanob insonlari davrasida bo‘lgan yurtdoshimiz yoki sayyohmi, butun diyorimizning haqiqiy fayzi va tarovatini yurak-yuragidan his etadi. Negaki Yaratgan mana shu fusunkor yurtimizga nimaiki ato qilgan bo‘lsa, qanday boyliklari ne‘matlar bilan siylagan bo‘lsa, ularning hammasini Toshkent viloyatida tugul ko‘rish mumkin.

Serquyosh ona diyorimizda har tong saxovatli boboquyosh aynan azim Ugom-Chotqol tog‘ tizmalari ortidan bosh ko‘tarib, butun yurtimizga shu‘la sochadigandek go‘yo. Aynan shuning uchun ham bu muqaddas zaminga xos tanti va mehnatkash, yuksak ma‘rifatli odamlarning ezigu tashabbus va intilishlari, boy hayotiy tajriba va yuksak tafakkuri butun mamlakatimizning barcha nuqtalari uzra taralib, aks sado berib tursa, ajab emas.

Bu zabardast viloyat nafaqat o‘z aholisi, balki azim poytaxtimiz Toshkent shahrida yashayotgan uch milliondan ortiq kishining qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari borasidagi hayotiy talab va ehtiyojlarini ta‘minlashda ham beqiyos o‘rin tutadi.

Bir so‘z bilan Toshkent viloyati mamlakatimizning eng katta va mustahkam tayanch tog‘laridan biri, desak zinhor mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Prezidentimiz 15-sentabr kuni ta‘lim-tarbiya tizimida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlardan bir guruhiga davlat mukofotlarini topshirish, shuningdek, ta‘lim sifatini oshirish, o‘qituvchi va murabbiylarni yanada qo‘llab-quvvatlash masalalarini muhokama qilish maqsadida Bo‘stonliq tumaniga tashrif buyurdi.

Dastlab davlatimiz rahbari tumandagi “Renessans” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi bilan tanishdi. Ochig‘i, shu birgina obyekt orqali u yerdagi shart-sharoitlar, zamonaviy imkoniyatlarni ko‘rib ham ta‘lim va yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini yaqqol sezish mumkin.

Keling, ulardan ayrimlarini sanab o‘tamiz. Yil davomida muntazam ravishda faoliyat yuritadigan “Renessans” oromgohida yoshlar 3 haftalik intensiv kurslarda o‘qitiladi. Yaxshi natijaga ko‘rsatganlarning 40 nafari “Pechak ligasi” universitetlariga tajriba almashish uchun yuboriladi.

Oromgoh 500 ga yaqin o‘quvchini qabul qilish quvvatiga ega. Ma‘muriyat, o‘quv binolari va yotoqxonada zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Mehmonxona, oshxona hamda avtoturargohlargacha muhayyo qilingan. Yozda o‘tkazilgan seminarlarda fan olimpiadalari g‘oliblari, xorijiy til sertifikatiga ega yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari ishtirok etadi. Bu teng imkoniyatlardan foydalangan o‘g‘il-qizlar bilimini oshirib, kelajagiga mustahkam zamin yaratadi.

Davlatimiz rahbari oromgoh xonalaridagi sharoitlarni, yoshlarning ixtirolarini ko‘zdan kechirdi. Shu yerda O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi. Prezident barcha muallimlarni tabriklab, ularga chuqur hurmat-ehtiromini bildirdi.



Prezidentning shu yil 11-sentabrda farmoniga muvofiq, ta‘lim-tarbiya tizimida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlardan bir guruhi faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan edi. Marosimda ana shu mukofotlar tantanali ravishda o‘z sohiblariga topshirildi. Davlatimiz rahbari ta‘lim sifatini oshirish, ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash islohotlarning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolishini ta‘kidladi. Yig‘ilishda ta‘limning barcha bo‘g‘inlarini rivojlantirish, yoshlar va pedagoglar uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirishga qaratilgan tashabbuslar belgilandi.

Albatta, ta‘lim sohasidagi islohotlar, qabul qilingan va qilinayotgan qarorlar doirasidagi ishlarni bemalol jahon standartlariga qiyoslash va uning mohiyatini eng rivojlangan mamlakatlar misolida tushuntirish mumkin. Davlatimiz rahbarining birgina: **“Ta‘lim sifatini oshirish hamda ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Zero, Yangi O‘zbekistonda eng muhim soha — ta‘lim, eng hurmatli insonlar — o‘qituvchi va murabbiylardir!”**, deya bildirgan fikri butun anjumanning ma‘no mundarijasini tuzib turibdi...

Tashrifning ikkinchi qismida Prezidentimiz Bo‘stonliq tumanidagi yangi turizm majmuasi imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi, ayrim masalalarni joyida hal qilib, o‘z takliflarini bildirdi. So‘nggi yillarda hududda infratuzilma rivojlantirilib, yilning to‘rt faslida maroqli sayohat uchun qulay sharoit yaratilgani, xususan, Amirsoy, Chinorkent, “Chorvoq darvozasi” kabi ulkan majmualar, zamonaviy mehmonxonalar, dam olish va umumiy ovqatlanish maskanlari ishga tushirilgani e‘tirof etildi.

Endi ularning safiga Chimyon xalqaro umummavsumiy kurorti ham qo‘shiladi. Fransiyaning MND kompaniyasi bilan hamkorlikdagi ushbu loyiha uchun 1 ming 278 gektar maydon ajratilgan. Loyiha doirasida mehmonxonalar va dengiz sahidan 3 ming 300 metr balandlikkacha osma dor yo‘li quriladi. Chimyon to‘liq mavsumiy turizmni ta‘minlaydi. Qishda chang‘i va snoubord, boshqa fasllarda esa tog‘ sayyohligi va ko‘ngilochar hordiq imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Millatparvarlik, yurtsevarlikda barchamizga o‘rnak bo‘layotgan, xalqim yaxshi yashasin, yoshlarimiz — o‘g‘il-qizlarimiz hech kimdan kam bo‘lmasin deb kunu tun tinim bilmayotgan, oromni unutgan Prezidentimiz bilan birga yurib, ushbu ezigu rejalarni, hududning bugungi kuni va istiqbol haqidagi yangiliklar bilan tanishar ekanmiz, beixtiyor o‘tmishga nazar tashlaymiz. Biz shu viloyatning farzandimiz. Yoshimiz ham

tobora ulg‘ayib bormoqda. Aytmoqchimizki, bundan ellik-oltmish yil oldingi manzaralarni, holatu ahvolni bemalol ko‘z oldimizga keltira olamiz.

O‘shanda Toshkentdan Chimyonga borish katta mashaqqat edi. Toshkentning Salor avtobekatidan Burchmulla qishlog‘iga qatnaydigan avtobusga “ilini” olgan yo‘lovchining oshig‘i olchi bo‘lardi: to‘rt soatda manzilga yetib borardi. Bu avtouluv qatnovi yo‘lovchilarning kam-kamligiga bog‘liq bo‘lib, kuniga ikki yoki uch marta borib kelardi, xolos. Tog‘li qishloqlarga boradiganlar yo‘ldagi Eshakko‘priksoyda yoppasiga ulovdan tushardi. Ko‘prikdan avval bir eshikli botinkasimon “PAZ” rusumli avtobus, keyin yo‘lovchilar birin-ketin o‘tib olardi.

Avtobusga ilinmaganlar dastlab Chirchiqqa, undan G‘azalkentga, so‘ngra esa manzilga — naq uchta transport almashtirib yetib olardi. Bunga kamida yarim kun ketardi. Tog‘li qishloqda yashovchilar ba‘zan G‘azalkentda yoki Xo‘jakentda tunab, yo‘lni ertasiga davom ettirgan holatlar ham bo‘lgan. Bugun bular shunchaki cho‘pchaksimon xotiralar, xolos.



Prezidentimizning 2023-yil 10-oktabrdagi qaroriga muvofiq, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati transformatsiya qilinmoqda. Toshkent atrofida ham elektrlashtirilgan yo‘l qurilib, poyezdlarni o‘tkazish imkoniyati 30 foiz oshdi.

Toshkent — Xo‘jakent yo‘nalishida yangi tezyurar elektropoyezd qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Vagonlar shinam va yorug‘, yo‘lovchilar uchun qulay. Poyezd soatiga 120 kilometr gacha tezlikda harakatlanadi. Har bir targa kuniga uchtdan qatnov yo‘lga qo‘yiladi. Toshkentdan

Xo‘jakentga borish yoki qaytish uchun endi bir soat atrofida vaqt sarflanadi. Yo‘l haqi, xalqona aytganda, kepak narxi.

Toshkent — Chinorkent yo‘nalishida yangi elektropoyezd qatnay boshlaganidan mahalliy aholining quvonganini aytmaymizmi?! “Yo‘l azob emas, rohatga aylandi. Poytaxt-gacha bo‘lgan masofa bir qadam bo‘lib qoldi-yey”, deyishmoqda minnatdorlik tuyg‘ularini yashirolmayotgan Bo‘stonliq ahli. Bu gapni bugun-erta hududga kelayotgan doimiy sayyohlar ham aytishi muqarrar.

Shuningdek, erta-indin Baytqo‘rg‘on — Parkent yo‘nalishidagi poyezd qatnoviga start beriladi. Yaqin kunlar ichida esa poytaxtni Nurafshon bilan, Nurafshonni esa Bekobod bilan bog‘laydigan temir yo‘l quriladi.

Biz uzoq o‘tmishni esladik. Vaholanki, bir yil avval Chimyonga kelgan odam bugungi o‘zgarishlarni ko‘rib, lol qoladi — hayratdan ko‘zi qamashadi. Hududni tanimay, “Boshqa joyga kelib qoldikmi?” deb astoydil o‘z xotirasini tekshirsa ham ajab emas. Yo‘llar ravon — pastu balandliklar sezilmaydi. Bu yerda turizm boshqa sohalar bilan uyg‘un tarzda rivojlanib bormoqda.

Umummavsumiy kurort loyihasi doirasida avtomobil yo‘lida tunnel ham qurildi. Ushbu inshoot tarkibiga uzunligi 1450 metr bo‘lgan asosiy yo‘l, 2 ta ko‘priklar va piyodalar yo‘laklari kiradi. U hududdagi tog‘ kurortlariga olib boruvchi asosiy yo‘lni qisqartiradi. Xavfsizlikni oshirib, transportlar harakatini yengillashtiradi. Tunnel orqali soatiga 500 dan ziyod avtomashina xavfsiz va qulay harakatlaniishi mumkin. Yo‘llar qulayligi hududning turizm salohiyatini to‘la ishga solish va iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sanaladi. Zero, davlatimiz rahbarining o‘zi ko‘p bora ta‘kidlaydigan fikrga Bo‘stonliqdagi sharoitlar aynan mos keladi: **“Odamlarimiz ham, mehmonlar ham yo‘lga qarab davlatga baho beradi. Yo‘llar yaxshi bo‘lsa, xalqimiz rozi bo‘ladi”**.

Muhimi, bu kabi loyihalar sayyohlarga qulaylik yaratishi barobarida mamlakatimizning investitsiyaviy va madaniy jozibadorligini oshiradi.

Prezidentimizga hamroh bo‘lib, bu yerdagi mehmonxona, restoran va savdo majmualarini ko‘zdan kechirdik. Qayd etilishicha, 6 qavatli zamonaviy mehmonxona 320 sayyohni qabul qilish imkoniyatiga ega. Yil davomida o‘rtacha 45 ming sayyohga xizmat ko‘rsatiladi. Jahon tajribasini bevosita o‘zlashtirish uchun bu yerda “Wyndham” brendi bilan hamkorlikda malakali boshqaruv yo‘lga qo‘yiladi. Pirovardida xizmat sifati bilan birga mamlakatimiz turizmining xalqaro nufuzi ham oshadi.

Bu hammasi emas, albatta. Ayni hududdagi yana bir yirik loyiha doirasida 7 va 5 qavatli apart-otellar, 7 qavatli mehmonxona hamda 2 qavatli restoran barpo etildi. Tabiiyki, bu inshootlarda ham xizmat sifatiga birinchi darajali masala sifatida qaralib, xalqaro standartlarga monand qilishga alohida e‘tibor berilmoqda. Mazkur obyektlar yil davomida o‘rtacha 54 mingdan ziyod mehmonni qabul qilishga mo‘ljallangan.

Ayni paytda 6 ta shale qurilishi davom etmoqda. Ko‘ngilga manzur yana bir jihati shuki, mana shu joylarda yuzlab mahalliy aholi vakillari — yoshlar ish bilan ta‘minlanadi, yaxshigina daromadga ega bo‘ladi.

Prezidentimiz mutasaddilar, quruvchi va keng jamoatchilik vakillari bilan samimiy suhbatda yangi majmualar qurish va xizmat ko‘rsatishda ilg‘or tajribalarni qo‘llash, xodimlar malakasini oshirishdek muhim masalalarga e‘tibor qaratdi. Shuningdek, hududning ulkan imkoniyatlarini dunyo turizm platformalarida faol targ‘ib qilib, mahalliy va xorijlik sayyohlarni eng jalb etish bo‘yicha ham qat‘iy ko‘rsatmalar berdi.

Turizmga mo‘ljallangan mana shu bepoyon hududda ayni zamonning eng kichikdek ko‘rinadigan, aslida esa global muammosi bo‘lgan avtoturargoh masalasi ham ijobiy yechimini topgan. Ya‘ni 300 ta avtomobilga mo‘ljallangan maxsus imorat qurilgan. Uning birinchi qavatidan umumi foydalanish uchun restoran, bolalar maydonchasi va savdo majmuasi joylashtirilgan. Bu, albatta, faqat qulaylikkina emas, balki sayyohlar uchun qo‘shimcha xizmatlarni bir binodan tashqari chiqmay, bus-butunligicha taqdim etish imkoniyati hamdir. Shu loyiha bilan tanishib, mutaxassislar sayyohlarning kayfiyati, ruhiyati va xohish-istaklarini chuqur o‘rganib, barchasini bir nuqtada birlashtira olganiga qoyil qoldik.

Eng asosiysi, birgina Chimyon umummavsumiy kurorti bahonasida Bo‘stonliq tumanining qiyofasi yangilanib, u yerdagi xizmat ko‘rsatish sohasida minglab yangi ish o‘rinlari, ayniqsa, mahalliy aholi uchun sezilarli



daromad manbai paydo bo‘lmoqda. Sayyohlar ham bunday sharoit, imkoniyatlardan mamnun bo‘lishi, yurtimizning go‘zal tabiati, qudrati va xalqimizning mehnatsevarligiga tasannolar aytishi turgan gap. Bu sayyohlar soni kun sayin oshishini ta‘minlaydi.

Biz mahalliy aholining ayni o‘zgarishlarga munosabatini ham kuzatdik — xursand, rozi. Axir uyingiz ostonasidan bir qadam yursangiz-u, ishxonangizga yetib olsangiz, yana eng chiroyli, eng zamonaviy, bahavo, xushmanzara ishxonada, chet eldan, o‘zimizdan kelgan odamlar bilan muloqot qilib, kamiga mo‘may daromad olib, bola-chaqa, qon-



qarindosh bilan birga hayot gashtini sursangiz — saodatning o‘zi emasmi shu?!

Tashrif davomida Prezidentimiz Bo‘stonliq tumanidagi Chimyon mahallasida barpo etilayotgan agrosanoat bog‘ini borib ko‘rdi. Bo‘stonliqliklar suv boshida, yeri serunum, xalqi mehnatdan sira qochmaydi. Mana shu jihatlarni asos bo‘lib turizmga agrar soha uyg‘unlashtirmoqda. Chimyon mahallasidagi 3 ming gektar maydonda malina, qorag‘at, qulupnay, o‘rmon yong‘og‘i kabi mevalarni yetishtirish yo‘lga qo‘yilganini ko‘rib, Prezidentimiz juda mamnun bo‘ldi. Bu mehnatning zavqi, mirishkorlikning sururi.

Loyihaning umumiy qiymati 60 million dollardan ortiq deydishmoqda mutaxassislar. Bu mablag‘ning bir qismi hududga suv olib kelishga sarflandi. Qiru adirlarga Chorvoq dengizidan 12 kilometr masofaga suv tortib kelindi. Mablag‘ning qolgan qismi bog‘u rog‘lar yaratish hamda mevani qayta ishlash korxonalari va katta sig‘imli omborxonalar qurishga sarflandi. Ayni paytda 50 gektar maydonda malina va qulupnayning xorijiy eksportbop navlari ekilgan. Suvni iqtisod qilish uchun boqqa to‘liq tomchilatib sug‘orish tizimi o‘rnatilgan.

Hozircha malinaning ham, qulupnayning ham har gektaridan bir milliard so‘mgacha daromad olinayotgan ekan. Bozor kengayib, xaridor ko‘paygach, bu raqam yanada o‘zadi. Chunki mahsulotlar ekologik jihatdan toza, yirik va asosiysi, juda mazali! Yanada muhimi — shifobaxsh. Darvoqe, dala boshiga o‘rnatilgan pannolarda shu yerda yetishtirilayotgan har bir mahsulotning inson sog‘lig‘iga foydasi yozib qo‘yilgan. Bu bitiklar eksport mahsuloti qadoqlariga ham ko‘chirib qo‘yiladi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, loyiha to‘liq yakuniga yetkazilgach, yiliga 24 ming tonnaga yaqin mahsulot yetishtiriladi. Buning kattagina qismi — o‘rmon yong‘og‘i va rezavorlar eksportga yo‘natiladi. Bu bog‘larning gullab-yashnashi, gurkirab turishi uchun 12 mingdan ziyod ish o‘rmi yaratiladi.

Prezidentimiz mazkur ulkan loyiha bilan tanishib, uni qo‘llab-quvvatlarkan, endilikda qayta ishlashni rivojlantirishga ham alohida e‘tibor berish kerakligini ta‘kidladi. Bu borada ekin navlarini tanlashdan to‘ularga ishlav berish,

mevalarni nest-nobud qilmay terish va saralash jarayonlarigacha zamonaviy yondashuvga tayanish lozimligini uqtirdi. Chunki o‘z puliga sotib olayotgan xaridor sifatli mahsulot izlaydi, shu bilan birga, u xaridorgir ham bo‘lmog‘i kerak. Ana shunda eksport masalasida ham muammo bo‘lmaydi.

Bog‘lar barq urib, yashnab tursa, atrofida korxonalar va turdosh xizmatlar ko‘payib, ishchilarga talab ortib borsa, bo‘stonliqliklar yaqin yillarda uzoqqa qatnamay, o‘z qishlog‘ida ishlaydigan bo‘lsa, ajab emas. Maoshini ham, qo‘shimcha daromadini ham o‘z kindik qoni to‘kilgan go‘shadan topadi. Natijada hudud iqtisodiyoti rivojlanadi.

Jarayonda davlatimiz rahbari mutasaddilarga boshqa adir va yaylovlar imkoniyatini ham o‘rganish va mana shunday sardaromad bog‘lar yaratishda davom etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Xullas, tuman mo‘jizalar maydoniga aylanib bormoqda. Bu hududning nomi go‘zal, nomidan ham o‘zi go‘zal. So‘zsiz, bugun Bo‘stonliqda amalga oshirilayotgan islohotlar hademay tillarda doston bo‘ladi. Bunga shubha yo‘q.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz rahbarining Bo‘stonliq tumaniga bu galgi tashrifi ham Toshkent viloyati jamoatchiligi, faollari, rahbarlariga katta mas‘uliyat yukladi. Ushbu topshiriqlar ijrosini ta‘minlash asosida aholining turmush sharoitini yaxshilash masalasi bosh maqsadimizga aylanmog‘i lozim. Maqsad esa aniq. Bu haqda joriy yil 11-sentabr kuni Toshkent viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalarni muhokama yuzasidan davlatimiz rahbari o‘tkazgan yig‘ilishda ham ko‘rsatib o‘tiladi. Prezidentimizning viloyatni 2025-2027-yillarda



jadal rivojlantirish bo‘yicha qarorlari qabul qilinib, ular ijrosi uchun 41 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘natilgan. Bularning bari hududlarda ishsizlikni pasaytirib, kambag‘allik darajasini qisqartirish imkonini bermoqda.

Prezidentimiz tomonidan mazkur loyihalarni bekam-ko‘st amalga oshirishga ko‘maklashish, ayrim masalalarni zudlik bilan yechish bo‘yicha mas’ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi. Pirovardida 11 mingdan ziyod aholi bandligi ta‘minlanadi, 434 million dollarlilik eksport quvvati yaratiladi.

Ushbu choralar amalda tatbiq etilishi ortidan viloyatdagi olitla shahar va yana to‘rtta tuman ishsizlikdan batamom xoli hududga aylantiriladi. Bu ishlar boshqa tumanlarda ham izchil yo‘lga qo‘yiladi. Yil oxiriga borib, ishsizlik ko‘rsatkichi 4,5 foizni tashkil qiladi. Zero, davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek: **“Yangi tashabbuslarimizdan maqsad nima? Har bir bolani chak-hunar orqali daromadli qilsak, barcha oilalarning ro‘zg‘ori buti bo‘ladi, mahallalarda tinchlik hukm suradi”**. Biz barchamiz mana shunday ichki da‘vat va vatanparvarlik hissi bilan yashashimiz, hamisha olg‘a intilishimizni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Shunday ekan, keling, farovon hayotning mustahkam poydevorini yaratish yo‘lida yanada birlashaylik, yurtimiz, elimiz ravnaqi uchun bugungi buyuk islohotlarga munosib bo‘laylik!

Sayyora FAYZIYEVA,
Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashi raisi,

Abdusamad NOSIROV,
“Nuroniy” jamg‘armasi Toshkent viloyati bo‘limi raisi,

Mahmud TOIR,
Yozuvchilar uyushmasi Toshkent viloyati bo‘limi rahbari, O‘zbekiston xalq shoiri, senator,

Rahmatilla SHERALIYEV,
Jurnalistlar uyushmasi Toshkent viloyati bo‘limi raisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Ko'ngildagi bitiklar

Ma'naviyatning tayanch ustunlari



Abdug'affor JO'RAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yaqinda Prezidentimiz farmoni bilan sohaning bir guruh fidoyilari yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangani haqidagi xushxabarni eshitib, qalbim faxr va iftixorga to'ldi. Bu shunchaki bir guruh o'qituvchilarga ko'rsatilgan e'tibor emas, balki ularning timsolida butun o'zbek muallimlariga, ming-minglab ma'rifat fidoyilariga bildirilgan yuksak ishonch va ehtiromning yaqqol ifodasidir. Chekka-chekka qishloq maktablarining oddiy muallimlari yuksak davlat mukofotiga sazovor bo'layotganining o'ziyoq jamiyatda kuchli ijtimoiy signal berib, yosh avlodning qalbida o'qituvchilik kasbiga havas uyg'otadi, ota-onalarning o'z farzandi kelajagini shu soha bilan bog'lashiga turki beradi va eng muhimi, ustozning mavqei butun millat miqyosida e'tirof etilayotganini amalda ko'rsatadi.

Iqtisodchi olim sifatida chuqur ishonch bilan aytay olamanki, XXI asrda mamlakatning haqiqiy qudrati uning yeroosti boyliklari yoki yirik zavodlari soni bilan emas, avvalo, inson kapitalining sifati bilan o'lchanmoqda. Inson kapitali millatning intellektual salohiyati, uning bilimi, mahorati, tafakkuri va yaratuvchanlik qobiliyatidir. Bugungi dunyo "bilimlar iqtisodiyoti" yunyosidir. Ushbu iqtisodiyotning asosiy xomashyosi — g'oya, innovatsiya va texnologiya. Uning "yoqil'isi" esa o'qituvchi tomonidan tarbiyalangan, zamonaviy fikrlaydigan, raqobatbardosh kadrdir.

Ta'limga sarmoya kiritish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikning ham mustahkam kafolati sanaladi. Savodli, dunyoqarashi keng, tanqidiy fikrlay oladigan jamiyat turli yot g'oyalarga, radikalizm va ekstremizmga qarshi eng kuchli immunitetga ega bo'ladi. Sifatizs ta'lim esa ishsizlik, qashshoqlik va ijtimoiy illatlar uchun qulay zamin yaratadi. Demak, har bir maktabga, har bir o'qituvchiga kiritilayotgan sarmoya nafaqat kelajakdagi iqtisodiy o'sishga, balki bugungi tinch va osuda hayotimizni himoya qilishga qo'shilgan ulkan hissa deb bemaol aytay olamiz.

Ta'limga yo'naltirilgan mablag'ning iqtisodiy samaradorligini baholashda "multiplikator effekti"ni ham unutmashlik kerak. Xo'sh, bu nimani anglatadi? Bir sohaga kiritilgan investitsiyaning

Inson umri go'yo uzun bir yo'l, unda har kim o'z manzili sari intiladi, o'z balandliklarini zabt etishga urinadi. Kechib o'tgan umrim dovonidan ortga nazar tashlar ekanman, ana shu yo'l chorrahalarida, eng muhim burilishlarida menga ma'rifat chirog'i bilan yo'l ko'rsatib turgan, qoqilganimda suyan, bilim cho'qqilari sari yetaklagan aziz insonlar — ustozlarim siymosi ko'z o'ngimda gavdalanadi. Har yili kuzning iliq nafasi bilan kirib keladigan 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida ularning siymosi yanada yorqinroq, yanada ulug'vor ko'rinadi.

boshqa turdosh sohalarda ham qo'shimcha o'sishga sabab bo'ladi. Misol uchun, yangi, zamonaviy maktab bunyod etilishi qurilish materiallari sanoati, transport, mebel ishlab chiqarish kabi o'nlab sohalarga turki beradi. O'qituvchilar maoshi oshishi ularning xarid qobiliyati ortishi va ichki bozorning jonlanishi demakdir. Eng asosiysi, sifatli ta'lim olgan bitiruvchilar kelajakda yuqori texnologiyali sohalarda mehnat qilib, boshqalar qatori soliq to'laydi, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytiradi va mamlakatning PISA (The Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro ta'lim reytinglaridagi o'rmini yuksaltiradi. Bunday reytinglardagi yuqori o'rinlar esa, o'z navbatida, mamlakatga kirib keladigan xorijiy investitsiyalar oqimi ko'payishiga zamin yaratadi. Demak, ta'limga sarflangan har bir so'm o'zini nafaqat ma'naviy, balki bir necha barobar qilib moddiy jihatdan ham oqlaydigan eng maqbul samoviyadir.

Shu o'rinda eng muhim maqsadimiz bo'lmish Uchinchi Renessans poydevorini qurish g'oyasiga alohida to'xtalib o'tish joiz. Mazkur g'oya shunchaki balandparvoz shior emas, balki aniq ilmiy-tarixiy asoslarga ega milliy dasturdur. Birinchi Renessans Sharqda IX-XII asrlarda, Movarounnahr zaminida al-Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi daholarimiz bilan bog'liq bo'lsa, Ikkinchi Renessans Amir Temur va temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy kabi siymolar nomi bilan tarixga muhrlangan. Har ikkala yuksalishning zaminida ham ilm-fanga, ustoz va olimlarga ko'rsatilgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik yotibdi. Bugun biz barpo etayotgan Uchinchi Renessansning poydevorini ham aynan ta'lim va ma'rifat tashkil etadi. Uning me'morlari — bugungi kunning o'qituvchilari, uning bunyodkorlari esa ularning qo'lida ta'lim olayotgan yosh avloddir. "O'zbekiston —2030" strategiyasida belgilangan barcha yuksak marralarga erishishning kaliti ham aynan maktablarda, o'qituvchining mashaqqatli mehnatida yashiringan.

Albatta, mazkur yuksak maqsadga faqat davlatning sa'y-harakatlari bilangina erishib bo'lmaydi. Ushbu jarayonda jamiyatning barcha bo'g'inlari, ayniqsa, ota-onalar faol ishtirok etishi shart. "Maktab — oila — mahalla" hamkorligi shunchaki chiroyli ibora bo'lib qolmay, amaliy harakatga aylanishi ayni muddao. Ota-ona farzandining taqdiriga befarq bo'lmastligi, o'qituvchining mehnati naqadar mashaqqatli ekanini anglab, uni hurmat qilishi va qo'llab-quvvatlashi lozim. Farzandining darslarini nazorat qilish, maktab hayoti bilan qiziqish, o'qituvchi

bilan doimiy muloqotda bo'lish har bir ota-onaning muqaddas burchidir. O'qituvchi maktabda bergan bilim va tarbiyani oila mustahkamlamasa, barcha urinishlari besamar ketishi turgan gap. Qush



ham bir qanot bilan ucha olmaydi. Millatning ma'naviy yuksalishi-da xuddi shunday: bir qanoti maktabdagi ustoz bo'lsa, ikkinchi qanoti oiladagi tarbiyadir.

Afsuski, ba'zan ayrim ota-onalar orasida farzandining tarbiyasi uchun butun mas'uliyatni faqat maktab va o'qituvchining zimmasiga yuklab qo'yish holatlari uchrab turadiki, bu tubdan noto'g'ri yondashuvdir. O'qituvchi — bilim beruvchi, yo'l ko'rsatuvchi. Ammo odamiylik, mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi eng asosiy hayotiy qadriyatlar poydevori aynan oilada qo'yiladi. Oiladagi nosog'lom muhit, ota-onaning qo'pol muomalasi, kitobga, bilimga bepsandligi bola qalbida ulkan bo'shliq hosil qiladi va mazkur bo'shliqni bargini o'qituvchining o'zi to'ldirishi amrimahol.

Shu bois, jamiyatimizda ota-onalarning pedagogik



USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



madaniyatini, farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Zero, ustozga eng katta ko'mak uning ishini tushunadigan, u bilan hamfikr bo'lgan va farzandining kelajagi uchun qayg'uradigan ota-onalar jamoasidir.

Shu yo'lda qilinayotgan amaliy ishlar esa kishini yanada ruhlantiradi. Mamlakatimizda ustozning maqomini yuksaltirishga qaratilgan e'tibor biryoqlama, faqatgina moddiy rag'batlantirish bilangina cheklanib qolmayapti. Ushbu jarayon chuqur o'ylangan, bir-birini to'ldiruvchi bir necha muhim yo'nalishda kompleks tarzda kechmoqda.

Birinchidan, ustoz uchun munosib mehnat sharoiti va zamonaviy ta'lim infratuzilmasini yaratish. So'nggi yillarda yurtimizning barcha hududlarida qad rostlayotgan Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'z ko'rki va salohiyati bilan ko'zni qovontiradi. Ular shunchaki chiroyli binolar emas, balki ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy laboratoriyalari, robototexnika to'garaklari va sog'lom raqobat muhitini o'zida mujassam etgan ma'rifat maskanlariga aylanmoqda.

Ikkinchidan, o'qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun keng va shaffof imkoniyatlar eshigi ochilishi. Bir zamonlar maktab oshirish deganda ko'pincha eskirgan ma'ruzalarni tinglash va qog'ozbozlikdan iborat samarasiz bir jarayon tushunilardi. Bugun bu yondashuv

butunlay o'zgardi. Ta'lim sohasida dunyoning yetakchi mamlakatlari bo'lgan Finlyandiya, Buyuk Britaniya tajribasi asosida ishlab chiqilgan yangi malaka oshirish tizimlari joriy etilmoqda. Endi har bir o'qituvchining bilim darajasi va kasbiy kompetensiyalari xalqaro standartlar asosida diagnostikadan o'tkazilib, uning shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi belgilanmoqda.

Uchinchidan va eng muhimi, ustozlar qalbida yillar davomida so'niib qolgandek tuyulgan bir his — o'ziga ishonch, o'z kasbiga bo'lgan g'urur tuyg'usining qayta tiklanishidir. Bu katta yangilik va ulkan ijtimoiy-psixologik yutuqdir. Yaqin o'tmishda o'qituvchining zimmasiga uning vazifasiga mutlaqo aloqasi bo'lmagan qanchadan qancha ortiqcha ishlar yuklanar edi. Majburiy obuna, paxta yig'im-terimi, hududlarni tozalash, son-sanoqsiz qog'ozbozlik va hisobotlar uni asosiy ishidan — farzandlarimizga ta'lim-tarbiya berishdan chalg'itardi, qadriini, obro'sini poymol qilardi. Bugun esa o'qituvchi shu kabi barcha tashvishlardan ozod qilindi. Uning maqomi aniq-tiniq kafolatlandi.

O'tgan yili qabul qilingan "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun esa shu boradagi ishlarining mantiqiy va huquqiy yakuni bo'ldi. Mazkur qonun nafaqat o'qituvchining huquqlarini, balki uning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishni ham kafolatlaydi. Endilikda o'qituvchiga hurmatsizlik qilish, kasbiy faoliyatiga asossiz aralashish uchun javobgarlik belgilandi. Ushbu qadam, albatta, juda muhimdir. Ammo qonunning o'zi yetarli emas. Jamiyatimizda shunday muhit shakllanishi kerakki, unda har bir inson, u amaldor bo'ladimi, tadbirkor yoki oddiy fuqaro bo'ladimi, ustozga yuksak ehtirom bilan munosabatda bo'lsin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan bugungi kunda o'qituvchilar faoliyatini asossiz tanqid qilish, sha'niga dog' tushirish holatlari qancha nisbatan murosasiz bo'lishimiz zarur. Ommaviy

Islahot odimlari

Mahallalardagi sog'lom muhit, hududiy musobaqalar, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi turnirlar sababli yosh sportchilar safi kengayib bormoqda. Turli musobaqalardan saralab olingan yoshlar professional sportchi sifatida tayyorlanmoqda. Bu borada Navoiy viloyatida ham tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, 13 ta sport maktabi, 4 ta ixtisoslashtirilgan sport maktabi hamda 1 ta olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi faoliyat yuritmoqda.



YURT TARAQQIYOTI UCHUN

NAVOIYLIK YOSHLAR SPORT MAYDONIDA BIRLASHDI

— Ayni vaqtda markazimizda 450 yosh turli sport yo'nalishlarida tahsil oluyapti, — deydi Navoiy olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori o'rinbosari Aziz Shomurodov. — Ularning 200 ga yaqini terma jamoalar a'zosi. 250 nafari mamlakat miqyosida o'tkazilgan turli sport musobaqalarda medallarni qo'lga kiritgan. Shuningdek, 20 ga yaqin sportchimiz jahon va Osiyo chempionatlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, medallarga sazovor bo'lgan. Hozir o'quvchilarimiz kelgusi sport musobaqalariga tayyorlanayapti. Mashg'ulot o'tash uchun esa zamonaviy sport zallari mavjud. Yaqinda Sport vazirligi va Milliy Olimpiya qo'mitasi tomonidan sportning 10 turi bo'yicha yangi jihozlar ajratildi.

Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazining har bir bo'limida

sportchi o'g'il-qizlar mahoratli murabbiylar ko'magida mashg'ulot o'tamoqda. Ayni vaqtda markazning boks bo'limi tarbiyalanuvchilari Osiyo o'yinlari, jahon va qit'a chempionatlarida yuqori natijalarga erishmoqda. Charm qo'lqop egalariining yorqin g'alabasi nafaqat xalqimiz, balki dunyo sport ixlosmandlarining ham olqishiga sazovor bo'lmoqda. E'tiborlisi, bu sport turida qizlar ishtiroki ham yildan yilga ortmoqda.

Yaqinda kamondan o'q otish sport majmuasi yangidan bunyod etildi. Zamonaviy standartlarga mos jihozlangan ushbu majmuada murabbiylar har kuni uch bosqichda mashg'ulot o'tmoqda. Bugun Navoiy viloyatida 2000 ga yaqin sportchi milliy kurash bilan muntazam shug'ullanayapti. Ularga 65 malakali murabbiy birlashtirilgan. 21 hakamdan 2 nafari xalqaro

toifaga ega. Ular yirik musobaqalarga ham jalb qilinmoqda.

Navoiy shahridagi yakkakurash turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi yoshlari ham boshqa tengdoshlari kabi katta yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Xususan, yaqinda kurash bo'yicha o'tkazilgan musobaqaning respublika bosqichida 3 ta oltin, 2 ta kumush hamda 4 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

— Navoiylik polvonlar orasida kurash bo'yicha uch karra jahon, ikki karra Osiyo chempionlari hamda ko'plab nufuzli sport musobaqalari g'oliblari bor, — deydi Navoiy viloyati kurash federatsiyasi ijrochi direktori Mamadali Norov. — 2024-yilda kurash bo'yicha o'tkazilgan chempionatdagi sportchilarimiz 7 ta oltin, 14 ta kumush va 15 ta bronza medalni

qo'lga kiritdi. Shuningdek, xalqaro turnirlar, Osiyo va jahon chempionatlarida ham yuqori natijalarga erishib, jami 39 ta medalga sazovor bo'lgan. Ko'rsatkichlar yil sayin yaxshilanib boryapti. Masalan, 2025-yilning o'tgan davrida kurash bo'yicha respublika chempionatlarida sportchilarimiz 15 ta oltin, 9 ta kumush va 18 ta bronza, Osiyo chempionatida 3 ta oltin medalga sazovor bo'lgan.

Joriy yilda Navoiy viloyati futbol akademiyasida ham qator qurilish, ta'mirlash, jihozlash ishlari bajarildi. Endi murabbiylar bu sharoitdan samarali foydalanib, chempionlarni tarbiyalashni maqsad qilgan. Yashil maydonda to'p surayotgan yoshlar esa akalari singari jahon maydonlarida yurt bayrog'ini baland ko'tarish niyatida. Buning uchun sharoit va imkoniyat yetarli.

— Ayni vaqtda akademiyamizda 154 o'quvchi bor. Ularga 22 murabbiy birlashtirilgan. Murabbiylarimiz har oy navbati bilan O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi tashkil etgan malaka oshirish kurslarida ishtirok etib kelmoqda, — deydi Navoiy viloyati futbol akademiyasi direktori Akmal Kenjayev. — Stadionimiz qayta ta'mirlandi. O'yin maydoni bilan standartlariga javob beradigan chim bilan qoplandi. Mashg'ulot zallari va yotoqxonalar ham ta'mirdan chiqarildi. Zamonaviy sharoit yaratildi. Bu ishlar uchun davlatimiz 11 milliard so'm ajratdi. Shuning o'ziyoq yurtimizda futbolni rivojlantirishga yuksak e'tibor qaratilayotgani dalolatidir. To'g'risi, yigirma yildan buyon bunday sharoit va zamonaviy stadionga ega bo'lmaganmiz.

Mustaqilligimizning 34 yilligida bu majmualar yosh futbolchilarimiz uchun munosib tuhf bo'ldi.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim-tarbiya maskanlari bilan birga, yangi sport maktab va majmualari, stadion, suzish havzalari barpo etilayotgani yoshlar qalbida sportga ishtiyoqni yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, bu sohada faoliyat yuritayotgan ustoz va murabbiylarni moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash bo'yicha qilinayotgan ishlar ijobiy samara bermoqda.

— Viloyatda 1824 ta sport inshooti bor. Ularning 1204 tasi sport maydonchasi, 393 tasi sport zali, 101 tasi sun'iy qoplamali maydon, 33 tasi termanjor zali, 19 tasi suzish havzasi, 15 tasi stadion hamda 59 tasi boshqa turdagi majmualardir, — deydi viloyat sport boshqarmasi boshlig'i Jasur Murtazoyev. — Ushbu sport maskanlari aholini ommaviy sportga jalb qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda muhim ahamiyatga ega. Viloyatdagi umumta'lim maktablarining 274 tasida, professional va oliy ta'lim muassasalarining 27 tasida sport zali mavjud. "Tashabbusli byudjet" loyihasi doirasida eng chekka mahalla va ovul yoshlari uchun ham sun'iy qoplamali futbol maydonlari qurildi. Ayni vaqtda bu boradagi ishlar davom etmoqda.

Imkoniyatlardan unumli foydalanib, yosh sportchilarimiz katta sportga yo'naltirish, terma jamoalar uchun munosib nomzodlar tayyorlash ko'zda tutilgan. Hozirda soha mutasaddilari, murabbiylar va sportchilar shu maqsad yo'lida marrani katta olib, birgalikda harakat qilaypti. O'z o'mida navoiylik yoshlar sport maydonida birlashib, yurt taraqqiyoti yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-946.

34830 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 23:35

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.